

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5.2021

**научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2021

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY‘ATI:
<p>JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN</p> <p>JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI</p> <p>2021 5(167)</p>	<p>ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas‘ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa‘dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San‘atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari), YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p>

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

Шунингдек, Хиллари Клинтон ҳам паремиялар ўз нутқида ўринли фойдаланганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. У Нью-Йоркда партиявий сайловларда ғалаба қозонганидан сўнг шундай нутқ сўзлайди: «*Thank you. Today, today you proved once again there's no place like home*». Шу йўл билан сиёсатчи ўз миннатдорчилигини изҳор қилади, шунингдек, Нью-Йорк унинг уйи эканлигини, уни маҳаллий сайловчиларга яқинлаштирганини таъкидлайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, паремиялар оламнинг лисоний манзарасини англашда ўзига хос лингвистик ҳодисадир. Уларнинг бадиий, сўзлашув ва оммабоп нутқларнинг муҳим таркибий қисми эканлиги ҳаммага маълум, бироқ сиёсий дискурда ҳам адресант ва адресат ўртасидаги муносабатни, мулоқотни самарали қилишда асосий вазифалардан бирини бажаради. Жамиятда стратегик нуқтани назардан сиёсий нутқнинг, дискурсни ахамияти катта. Шу маънода паремияларнинг турли дискурсларда, хусусан, сиёсий дискурда паремияларни когнитив-прагматик тадқиқ қилиш соҳадаги мулоқотнинг, иш юритишнинг юксалишига хизмат қилади. Мазкур мавзу кенгрок ўрганишни такозо қилади.

Hamroyeva Maftuna Rasulovna (BuxDU o'qituvchisi) **ANTROPONIMLARNING BADIYATI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada antroponimlar va ularning shakllari, o'ziga xos xususiyatlari, badiiy asarda turgan o'рни haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy asarlarda antroponimlarning berilishi misollar vositasida ochib berilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются антропонимы и их формы, особенности, их место в произведении искусства. Назначение антропонимов в произведениях искусства также раскрывается на примерах.*

***Annotation.** The article examines anthroponyms and their forms, features, their place in a work of art. The purpose of anthroponyms in works of art is also revealed through examples.*

***Kalit so'zlar:** antroponimlar, badiiylik, badiiy asar, kishi nomlari, familiyalar, laqablar, uslubiyat.*

***Ключевые слова:** антропонимы, искусство, произведение искусства, имена, фамилии, прозвища, стиль.*

***Keywords:** anthroponyms, art, work of art, names, surnames, nicknames, style.*

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, xalqimizning o'zligini anglashi, mamlakatimiz ichki va tashqi hayotida tilning o'рни, milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni tiklash xalqimiz hayotidagi muhim, o'z oldiga qo'ygan asosiy masalalarning biri ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tilshunosligimizda o'zbek tilini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, tilimizning turkona tabiatini ochib berishga yo'naltirilgan lingvistik muammolarga, xususan, antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarni qardosh va noqardosh tillar bilan qiyosiy o'rganish, antroponimlarni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarida, ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, antroponimlarning izohli, imloviy transkripsiya lug'atlarini tuzishning leksikografik talab va tamoyillari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o'rganish, o'zbek tili antroponimikasini yaratish kabi masalalarga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu esa badiiy asar matni misolida antroponimik birliklarni amaliy tahlil va talqin qilish orqali tavsiflash, antroponimlarning tarixiy takomilini o'zbek xalqining milliy-ruhiy dunyosi, asrlar davomida shakllangan ma'naviy-madaniy qadriyatlari bilan birgalikda aniqlash, o'z navbatida, dunyo ilm-fanini bundan xabardor etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shuningdek, o'zbek tili antroponimikasining izohli va imloviy lug'atini yaratish, ma'no taraqqiyoti haqida yangi xulosalar chiqarish hamda ommaga talqin qilish imkonini beradi.

O'zbek adabiyoti vakillarining hikoyalari, umuman ijodi, leksik jihatdan boy bo'lib, unda hozirgi paytda faol qo'llanilgan so'zlar bilan bir qatorda, tarixiy qatlamga xos bo'lgan lug'aviy birliklar ham uchraydi. Ana shunday qatlamlardan biri antroponimlar. Ularda xalq ijodi, tafakkuri, ong-shuurining izlari saqlanib qolganligi ko'rinadi. Asarlardagi antroponimlarda tasvirlanayotgan davr, zamon tarixi, holati mujassamlashtirilgan, ular nafaqat nominativ, balki stilistik vazifani ham bajarganligini ko'rishimiz mumkin.

Badiiy asar tilini o'rganish hozirgi kunda tilshunoslikning muhim amaliy masalalardan biri bo'lib, u shoir yoki yozuvchining o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlashda va undan samarali foydalanishga yor-

dam beradi. Har bir yozuvchi, shoirming o'ziga xos yo'li, badiiy uslublari, tili bo'ladiki, u umumxalq tili qonuniyatlarga bo'ysunadi, unga asoslanadi. Har bir yozuvchi, shoir umumxalq tilidagi ifodalash vositalaridan o'zicha foydalanadi. Shu jarayonda uning asarda antroponimlardan, ya'ni kishi nomlaridan foydalanishida ham o'ziga xoslikni ko'rishimiz mumkin. Xususan badiiy asarda qo'llangan kishi nomlarini amaliy jihatdan o'rganish va tatbiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asar tilining milliylikka va xalq turmush tarzi-yu urf-odatlariga qay darajada bog'liqligi, mosligini ko'rsatib beruvchi vosita sanaladi.

Antroponimning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g'oyasini ochib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostilistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so'zlash mumkin bo'ladi.

Masalan, atoqli o'zbek yozuvchisi Tohir Malik asarlarida antroponimlarni qo'llashda o'ziga xos uslubni yarata olgan. Ijodkor hikoyalarida bosh obrazlarni nomlagan, ammo epizodik obrazlarni nomlamagan. Balki, bu bilan ijodkor kitobxon fikrini asosiy masalaga qaratishi kerak demoqchi bo'lgandir. Yozuvchi asarlaridagi antroponimlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, adibning "Qarg'ish" nomli hikoyasida antroponimlar ma'lum bir uslubiy vazifa bajargan. Ism ma'nosi qahramon hayotining qaysidir bir jihatini ochib berishga bevosita xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, bosh obrazlardan biri Yo'ldosh ismli bola. U oilaning to'ng'ich farzandi, otasi va ukalariga mehribon aka. Bu ismning ma'nosi o'zbekcha otasi yoki akalariga esh, hamroh bo'lib yursin degan ma'noni bildirdi. Jamiyatda shunday shaxslar borki, ular ota-onalari orzu-havas bilan qo'yg'an ismga munosib yashaydilar. Asarda bu obraz uchun ham ismi jismiga monand iborasini ishlatish o'rinli, albatta. Bu esa hikoyadan keltirilgan quyidagi parchalarda o'z aksini topgan: "O'ylay-o'ylay, jodudan qutulish chorasini topdi: ya-rim kechada turdi-da, "O'lsam o'zim o'lib qo'ya qolay, ukalarimga tegmasin", degan qarorda uyiga qarab bordi".

"Yo'ldosh onasiga ko'maklashishni yoqtirardi. Ayrim ishlarga qo'li ham kelib qolgandi".

Shuningdek, jamiyatda ismiga nomunosib shaxslar ham uchraydi, albatta. Yozuvchi Rahima obrazi orqali esa shuni ko'rsatadi va bunga o'zi ham alohida urg'u beradi: "Bu xotinning ismi jismiga, ayniqsa, ruhiga mos emas, "Rahima" atalgani bilan qalbida rahm-shafqat ozroq edi".

Yo'ldoshning otasi Ergash. Bu ism ham qisman o'z ma'nosidan kelib chiqib, asarda o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan, boshqalar fikriga ergashib ish tutadigan obraz sifatida tasvirlangan. Hattoki ayoli-ning vafotidan ikki oy o'tar-o'tmas qarindoshlarining gapiga ergashib bir ayolga uylanadi, so'ng uning gapi bilan bolalarini ham xolasiga berib yuboradi. Bu ism asarda o'zidagi salbiylikni ko'rsatgan. Aslida farzandiga Ergash ismini qo'yayotgan ota-ona uni yaxshilarga, yaxshilikka ergashishini orzu qiladi. Ijodkor esa so'zning bu ma'nosidan ustalik bilan foydalanib o'zbek tilining so'z ma'nolari naqadar serqirra va boy ekanligini yana bir bor ko'rsatib bergan.

Adib chet elga borgan Yo'ldosh tanishgan qahramonni Mister Belden nomi bilan tilga oladi. Bu ismdan ijodkor o'sha muhitni kitobxon ko'z oldida jonli gavdalandirish uchun foydalangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, antroponimlar asarning hayotiylikini ta'minlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ulardan foydalanish yozuvchi ijodidagi o'ziga xos ideal uslub sanaladi.

Badiiy asarlardagi qahramonlar xarakter-xususiyati va qiyofasini yoritishda esa, ko'pincha, yozuvchilar antroponimik birliklardan, ya'ni laqablardan, qahramon familiyasidan foydalanadilar. Bu kabi birliklar qahramonning kelib chiqishi, hayotdagi o'rni, kasb-kori, hayot tarzi, atrofida qilarg'a munosabati, tashqi ko'rinishi, kiyinishi va hokazolar haqida ma'lumot berishi mumkin. Badiiy asarda antroponimik birliklardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Jumladan:

1. Biror shaxsni xarakterlovchi, uning ustidan hazil-mutoyiba yoki kamsitish, haqorat vositasi sifatida. Masalan: "...Ertasi Ulton piyonning vahimasiga «ergashib» rayondan chiqib kelgan bir to'da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko'ngil aynituvchi manzarani ko'rdi» (Sh.Xolmirzayev). Bu misolda piyon so'zidan foydalanib ijodkor qahramonining ichkilikka berilgan kishi ekanligiga ishora qilyapti.

Bundan tashqari, ezmachuruk, shayton kabi so'zlar shaxsni salbiy tomondan xarakterlaydi. Bu xususiyati bilan ular laqabga yaqin turadi. Ammo hali laqab darjasiga ko'tarila olmaydi. Qachonki bunday so'zlar ijodkor tomonidan ko'p bor, o'sha ma'noda, o'sha shaxsni xarakterlash uchun qo'llanilsa, shaxsning doimiy atributiga aylansagina laqab darjasiga ko'tarilishi mumkin. Mana shunday darajaga yetganda bu so'zlar shaxsning ismiga qo'shilib aytila boshlaydi va laqab shakllanadi: Halima ezmachuruk, Karim shayton kabi.

2. Laqablarning shakllanishida laqab vazifasidagi so'zning shaxsning ismi o'rnida qo'llana boshlashi, ya'ni shaxsni ismi bilan emas, laqabi bilan atash odat bo'lishi ham mumkin. Bu holda laqab atoqli ot vazifasini bajara oladi. Laqabning shaxs ismi o'rnida qo'llana boshlanishi uni to'liq, ma'nodagi laqab holida shakllantiradi.

–Sadir Minullin degan odamni taniysizmi?

–Tanimayman.

Ha... To‘g‘ri, Minullinni tanimasligingiz mumkin, lekin Qozon deganni bilishingizni rad etolmasangiz kerak. Qozon – Minullinning laqabi (Tohir Malik).

(Tohir Malik)

3. Ijodkorning yana bir maqsadiga ko‘ra laqabga aylangan, aniqrog‘i laqab vazifasiga ko‘chgan so‘z doim shaxs ismi tarkibida, u bilan birga qo‘llaniladigan yoki ism o‘rnida mustaqil holda laqab vazifasini bajaradigan bo‘lib keladi. Bunda laqabning kishi ismidan keyin kelishi tipik holatdir.¹ Masalan: Po‘lat puchuqqa uchrashgandim, - garajda dispetcher edi, - ”Jo‘rajon, besh yuz so‘m bermasang, moshin ololmaysan” dedi. Menda sariq chaqayam yo‘q. Puchuq ko‘p gapiravergan edi, ”asli meni emas, seni qamashlari kerak edi” dedim. (Sh.Xolmirzayev)

4. Bundan tashqari laqablarning oddiy, funksional-nominativ vazifadan tashqari, uslubiy vazifani ham bajara olishidir. Bunga ko‘ra, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan laqablarning ma‘lum guruhlari badiiy adabiyot tilida uslubiy badiiy vosita sifatida qo‘llana boshlaydi. Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablar asarda ishtirok etuvchi asar qahramonlari, personajlarining xarakterini ochishda, ularni satirik, yumoristik vaziyatlarda tasvirlashda, asar tiliga emotsional-ekspressiv ruh bag‘ishlashda muhim rol o‘ynaydi.

Laqablarning uslubiy xususiyatlari badiiy tilda, ayniqsa, shaxslarning salbiy xususiyatlarini tasvirlash, asar qahramonlarining, qolaversa, yozuvchining laqab egasiga munosabatini ifodalashda juda qo‘l keladi.² Masalan:

–E! – dedi Hasan. Qulluq bo‘lsin, tiling chiqib qopti?

– Ha, tilimni... chiqardingiz, – javob qildi Shodagul pismiq. (Sh. Xolmirzayev)

Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablarning hammasi ham uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmasligi mumkin. Agar bu xususiyat laqab egasining kasb-kori, mashg‘uloti, o‘zidagi belgi-xususiyat bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqorida aytib o‘tilganidek uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmaydi:

«Shunda Quyun **qo‘rboshi** o‘girildi».

«Uning otasi Rahmon **polvon** qirg‘ yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o‘rta yashar o‘rtacha polvon bir qoqmada yiqitib qo‘yganida dardi shunchalikki, omborga bo‘yra to‘shab, ustidan suv sepi, unga bag‘rini berib yota-yota oldin yo‘talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o‘lib ketgandi.»

«Omon **mergan** mahsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog‘i yengil, qorga botmasdi.

«... Botir **cho‘pon** iljayib, quvonib dasturxon yozdi».

«Madiyor **dallol**ning o‘g‘li!» (Sh. Xolmirzayev).

Adiblarimizning ismlarni familiyalar bilan ham qo‘llagan holatlarini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi ko‘rinishlarni yozuvchi, xususan, Shukur Xolmirzayev uslubida mansabdor shaxslarning obrazini ifodalanishida uchratishimiz mumkin.

«**Kozim Puxtayev** ellikdan oshgan, mayin-ipakdek kishi.

«**Dilnura Qosimovani** kuzatib partkom kotibi ham chiqqach, **Husan Keldiyev** stol qoshida bir qo‘lini beliga tiragancha ikkinchi qo‘lini cho‘zib:

–Ana, qog‘oz, ruchka... Yoz, yoz!».

«Boyquvar tashqariga chiqqanida gardishi tepaga qayirib qo‘yilgan shlyapasini boshiga kiygan **Shoyim Shaydulov** bitta byuro a‘zosisining «Moskvich» mashinasi yonida edi.

–Ajabo, men bilmay yurgan ekanman. Qoching yo‘ldan, – dedi. – Hov, **Xo‘jamboy Madiyorov!**»

Ijodkor Tohir Malik uslubida esa mansabdor qahramonlarni ularning mansabi orqali ifodalanishini kuzatishimiz mumkin:

–**Prokurorning** ayblovinini tushundingizmi? Jinoyatingizga iqromisiz?

Sohib savolni tushunmagaday **sud hakamiga** qarab qoldi. **Hakam** yoshlarning o‘jarlik odatlari borligi uchun ham uni qistamadi.

Hakam prokurorga baqirib yubormaslik uchun, ko‘zlarini undan oldi.

Komissar avvaliga uning harakatini tushunmadi.

Shunday qilib, shaxs nomlariga qo‘shilib kelgan turli xil laqablar, familiyalar ushbu shaxslarning jamiyatdagi mavqeyi, o‘rnini ko‘rsatish bilan birga kitobxonga ma‘lum bir ruhiy zavq beradi, badiiy tasvirda obraz mohiyatini yanada yorqinroq anglashga yordam beradi va har bir ijodkorning o‘ziga xos tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Тоҳир Малик. Падаркуш. Т., «Давр-пресс», 2014.

² O‘sha kitob.

Adiblarning turli davrlarda yaratgan asarlari til jihatidan bir-biridan farqlanadi. Ijtimoiy hayot taraqqiyoti, undagi o'zgarishlar, yozuvchi dunyo qarashining boyishi va o'zgarib borishi yaratgan adabiy asarlarning tiliga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham badiiy asar tili o'rganilar ekan, shu asarni yozuvchining boshqa asarlari bilan qiyoslash, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Adib ijodiy tilini o'rganishda shu davr tarixiy sharoitini ko'rib chiqish bilan birga yozuvchining siyosiy-adabiy hayotdagi qaysi yo'nalishga mansubligi, uning dunyoqarashi va zamondoshlarining hamda o'tmish ijodkorlarining unga bo'lgan ta'sirini, shuningdek, asarning yozilish jarayonini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Badiiy asar tilidagi antroponimlarni o'rganish bir tomondan tilshunoslikning antroponimika sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalaridan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma'lum bir aniqliklar kiritishi bilan ahamiyatlidir. Badiiy asar tilida qo'llaniladigan antroponimlarni o'rganish o'zbek tili tarixida antroponimlarning o'rnini belgilash, bugungi kunga qadar qanday fonetik, leksik va grammatik holatlarni boshdan kechirganligi, semantik taraqqiyoti to'g'risida ma'lum bir xulasalar chiqarish mumkin bo'ladi. Bu, albatta, maqoladan ko'zlangan bir maqsad bo'lsa, ikkinchi maqsad antroponimning badiiy asar tilida qo'llanishini o'rganish bilan uning badiiy asar tilidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratareb.

Demak, til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog'liqlikda o'rganish lozim. Buning uchun bizga, birinchi navbatda, badiiy asarlar yordam beradi. Badiiy asardagi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar ham mana shu millat, xalq hayoti va o'tmishidan olingan, unda o'z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o'rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o'z milliyligimiz, tariximizni bilish va anglashda yana bir qadam oldinga siljijmiz. Men o'ylaymanki, istiqloq davri ijodkorlarining o'lmas merosi bizga ana shu bir qadam oldinga harakat uchun juda kata yordam berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asarda antroponimlar shaxs va jamiyat munosabatlarini ko'rsatuvchi manba bo'la olishi mumkin. Ulardan o'rinli foydalanish esa asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, har qanday antroponimik shakllarni esa, o'z navbatida, milliylikni ko'rsatuvchi qurol sifatida baholashimiz mumkin.

**Раджапова Феруза Абдуллаевна, Урганч Давлат университети
Факультетлараро чет тиллар кафедраси мудири, PhD; feruzakhon2009@mail.ru
СУХБАТЛАРДА ИЖОДКОР АДАБИЙ ҚАРАШЛАРИ**

***Аннотация.** Мақолада Эркин Аъзамнинг адабиёт ҳақидаги қарашлари, фикрлашлари, адабий жараёнга, бадий асарга, адабий муаммоларга муносабати унинг адабий суҳбатларида акс этиши ёритилади.*

***Аннотация.** В данной статье идет речь о взглядах Э.Азема о литературе, литературном процессе, художественных произведениях и проблемах литературы.*

***Annotation.** The views of E.Azam in his creative speeches about literature, the literary process and problems are given in this article.*

***Калим сўзлар:** услуб, характер, сўз масъулияти, адабий таъсир ва жараён, адабиёт, ижодкор шахси, сўз қўллаш маҳорати, кўнгил.*

***Ключевые слова:** стиль, характер, ответственность слова, литературное влияние и процесс, литература, личность творческого человека, способность использования слова, душа.*

***Key words:** style, character, the responsibility of the word, literary influence and process, literature, the personality of the writer, the skills of word using, soul.*

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Эркин Аъзам ўзбек адабиётининг таниқли намояндаларидан бири. Унинг иждодий бисотини ранг-баранг асарлар ташкил этади: роман, 15 га яқин қисса, киноқисса, 40 дан зиёд ҳикоя, шунингдек, қатор публицистик мақола, миниатюралар ва бошқалар. Мавзу, жанр ва услуб жиҳатдан турфа бу битикларда муаллиф истеъдодли носир, киносценарист, драматург, журналист, умуман, бадий сўз устаси сифатида намоён бўлади. Қувончлиси шуки, унинг қатор асарлари Европа халқлари тилларига таржима қилинмоқда, киноэкранларда намоён этилмоқда. Эркин Аъзамга хос бетакрор талантни фақат бадий тафаккур билан чеклаш бирёкламалик бўларди. Чунки унинг қаламига мансуб публицистик асарларда адабий-назарий қарашлар ҳам муайян ўрин тутадик, улар иждодкор феноменининг кирраси сифатида аҳамиятлидир.

Эркин Аъзам адабий қарашлари унинг фикр камрови, мустақил мулоҳаза доираси кенглигидан, бадий иждоднинг ижтимоий-эстетик моҳиятини чуқур англагани ва асарларининг асосий қис-

Abdullayeva Surayyo Babojonovna. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirishda nasriy asarlarni oqitish usullarining o'rni.....	103
Мусурмонова Шахло Илхомовна. Бошланғич синф ўқувчиларига экологик тарбия беришда миллий кадриятларнинг ўрни.....	107
Халмухамедова Махбуба Аслановна. Талабаларда нақшбандия тариқати воситасида касбий компетентликни ўқув жараёнида такомиллаштириш технологиясининг ўрни.....	109
Абдиримова Ингизор Комиловна. Лойиҳалаш фаолиятининг ташкилий усул ва воситалари.....	112
Турсунова Шахноза Бердикуловна. Методы и игры в преподавании русского языка.....	115
Рахматова Саодат Амракуловна. Компетентный подход обучения иностранным языкам на психолингвистической основе.....	118
Абдуллаева Розанна Мирзатуллаевна. Аспекты профессионально-ориентированного подхода к обучению русскому языку в медицинском вузе.....	120
Юсупова Татьяна Эдуардовна, Ахмедов Бахтиёр Юсупович. О видах компетенций, формирующих при обучении студентов русскому языку навыки и умения профессионального речевого общения.....	123
Atajonova Malohat Ikhamovna, Mirzayeva Lola Shermat qizi, Ortiqboeva Sabohat Qudratovna. Improving Communicative Language Skills through Role Playing Activity.....	125
Kadirova Feruza Xikmatullaевна. The Usage of Web Technologies as Social Network (Facebook) in Teaching a Foreign Language to Adults.....	128
Atadjanova Muxayyoxon Axmadjonovna. Integrated Approaches of Teaching Writing in English Lessons.....	131

JURNALISTIKA

Дадаханова Марғуба. Ўзбекистонда худудий телеканалларнинг ташкил қилиниши.....	134
---	-----

ILMIY AXBOROT

Исамутдинов Равшан Рахмонович. “Хавфсиз маҳалла” концепциясини жорий қилишда “хавфсиз кўча” мезонининг ўрни ва роли.....	138
Jumaniyazov Atabay, Xodjayeva Gulshod Baxadirovna. “Onlayn” so‘zi tavsifi.....	143
Vabajanova Umida Bahadirovna. Ingliz tilida tibbiy atamalar qo‘llanilishining o‘ziga xosligi.....	146
Жўраева Рамзия. Муқимий асарларида қўлланган “тил” лексемасининг семантик хусусиятлари.....	148
Асронова Мохигул Мусабоевна. Ўзбек ва инглиз сиёсий нутқларида паремияларнинг когнитив-дискурсив хусусиятлари.....	151
Hamroyeva Maftuna Rasulovna. Antroponimlarning badiiyati.....	154
Раджапова Феруза Абдуллаевна. Сухбатларда ижодкор адабий қарашлари.....	157
Nematova Nargiza Azimovna. Tarjimashunoslikda Mark Tven asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	159
Xudorberdieva Gulasal Shuxratovna, Adilova Shaxnoza Rahimovna. Joan Roulingning asarlaridagi sehrli olamning dinamikasi.....	162
Сайидова Гулрух. Ўзбек шоирлари ижодида ўхшатишларнинг ўрни.....	164
Qo‘chqorova Mahina Xojimurodovna. Xudoyberdi To‘xtaboyev uslubining namoyon bo‘lishida folklorning o‘rni.....	167
Пириязарова Манзура. Омон Матжон шеърятига доир.....	169
Normurodov Oybek Berdimurod o‘g‘li. Usmon Azim ijodida ijroviy lirikaning o‘rni.....	172
Атажанов Сарвар. Эркин Самандар шеърятига стилизация усули.....	175
Ражабов Фахриддин Тошпўлотович. Нуроталик тожикзабон ижодкорлар ҳақида мулоҳазалар.....	179
Гудзина Виктория Анатольевна. Образ узбекской женщины в лирической системе Зульфийи.....	183
Тоирова Дилфуза Файзуллаевна. Аспекты взглядов Стендаля в произведениях о «Свободе и счастье».....	186
Zamilova Rimma Ramilevna. Features of the Development of Students' Mental Activity in the Educational Process.....	188
Zokirova Shirin Irgashevna. Methods of Teaching Technical Terms in English.....	191

TANQID VA TAQRIZ

Исмаилов Исақжон. Арузга қайтиш. Ютуқ ва камчиликлар.....	194
--	-----

FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

Илҳом Атажанов – 60 ёшда!	197
--	-----